

## XALQIMIZNING MEHNATGA VA MEHNAT QUOLLARIGA BO‘LGAN MUNOSOBATI

**Gapporov Behzod Ne‘matillayevich**

Jizzax politexnika instituti katta o‘qituvchisi

Email: [bexzodgapparov132@gmail.com](mailto:bexzodgapparov132@gmail.com)

**Nomozov Muzaffar Lochinovich**

Jizzax Politexnika Instituti 1-bosqich talabasi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolamizda o‘zbeklarga xos an‘analardan biri bu mehnat va mehnat quollariga bo‘lgan munosabatlar xususida atroflicha misollar keltirish yo‘li bilan fikrlar bildirilgan. Bunda albatta, sharq mutafakkirlarining o‘g‘itlari ham inobatga olingan.

**Kalit so‘zlar:** pedagogika, ma‘naviyat, ma‘rifat, mehnat, mehnat quollari, munosabat, an‘ana, urf-odatlar.

### THE ATTITUDE OF OUR PEOPLE TOWARDS WORK AND WORKING WEAPONS

#### ABSTRACT

In this article, one of the Uzbek traditions is the relationship to labor and labor tools. Of course, the teachings of Eastern thinkers were also taken into account.

**Keywords:** pedagogy, spirituality, enlightenment, labor, labor tools, attitude, tradition, customs.

Xalq pedagogikasi nafaqat mehnatga, balki mehnat qurollariga munosabat, mehnat jarayonini to‘g‘ri tashkil etish to‘g‘risida ham boy hayotiy tajribaga, mukammal an’anaga ega. Bu haqda aytilgan xalq maqollari ham fikrimizning dalili bo‘la oladi: «Ish quroling soz bo‘lsa, mashaqqating oz bo‘lar», “Qalovini topsang, qor yog‘ar”, “Ishning o‘zini bilguncha, ko‘zini bil” kabi ...

Ish qurollarini toza, avaylab ishlatishga, o‘z joyiga qo‘yish, ish joyini ozoda, sarishta saqlash bo‘yicha ham xalqimiz o‘ziga xos an‘analarga ega. Uy-ro‘zg‘or anjomlarining o‘z joyiga qo‘yilishi, bu tartib doimo bir xilda saqlanishi ... Masalan, nega pichoqning joyi oshxonada-yu, qaychi oshxonada saqlanmaydi. Ip-ignalar nega xohlagan joyga tashlab ketilmaydi. Pichoqning dami tepaga qaratib qo‘yilmaydi, qaychining og‘zi ochiq qoldirilmaydi?

Bularning hammasi o‘z joyida saqlanadi, bolalarning qo‘li yetmaydigan joyga qo‘yiladi.

Nima uchun supurgi xohlagan joyga tashlanmaydi, oyoq ostida yotmaydi, mehmonxona, oshxonaga qo‘yilmaydi. Nega suvning, qozon, chelak, ovqatlarning yuzi ochiq qoldirilmaydi? Doim yopik saqlanadi. qolgan ovqat qozonning o‘zida saqlanmaydi. Surpa, elak, taxta-o‘hlok, dasturxonlarning o‘z joyi va saqlanish tartibiga rioya qilinadi.

Molxona yoki tomorqada ishlatiladigan ish qurollari o‘z vaqtida tozalanib, joy-joyiga qo‘yiladi.

Mehnat qilganda ham har bir ishni o‘z vaqtida, maromiga yetkazib, me‘yorini bilib, qulay sharoit yaratib bajarish kerakki, bu bevosita ishning samaradorligini ta‘minlaydi, mehnatingiz zoe ketmaydi. Bu haqda ham dono xalqimiz: “Yer haydasang - kuz hayda, kuz haydamasang - yuz hayda”, “Temirni qizig‘ida bos”, “Igna bilan bitadigan ishga juvoldiz ishlatma” kabi maqollarni aytgan.

Mehnatsevarlik muayyan mehnat madaniyatini, shuningdek, uy-ro‘zg‘or mehnatida ham mehnat madaniyatini nazarda tutadi. Buning ma‘nosi shuki, uy-ro‘zg‘or ho‘jaligida biror ish bajarilar ekan, uni faqat tez bajarishgina emas, balki yaxshi, chiroyli, bejirim, did bilan, imkoni boricha ijodkorlik bilan bajarish

muhimdir. Buning hammasi uy-ro‘zg‘or ishlariga joziba baxsh etadi. Uy-ro‘zg‘or yumushlari ham, kundalik ishlar ham ijodkorlikni talab etadi.

Ish joyida ham, ro‘zg‘orda ham mehnatni to‘g‘ri tashkil etish, mehnat qurollarini joy-joyida saranjom-sarishta, toza-ozoda saqlash ishning samaradorligini va unumdorligini, qulayligini ta‘minlaydi. Bu haqda xalqimiz: “Rejasi yo‘q kishining - unumi yo‘q ishining”, - deb topib aytgan.

Ishni did bilan, e‘tibor bilan, uquv bilan bajarishning afzalligi haqida “Chumchuq so‘ysa ham qassob so‘ysin”, - deydi xalqimiz.

Ishni - mehnat jarayonini to‘g‘ri tashkil etish kam kuch va kam vaqt sarflab, yaxshi natijaga erishish imkonini bersa, ish qurollarini ayab, o‘z o‘rnida ishlatish ishxonada ham, uyda ham ro‘zg‘orga fayz-baraka olib kiradi. Tejamkorlikka asos bo‘ladiki, bu haqda xalqimiz: “Yangini eski asraydi”, - deydi.

Darhaqiqat, oila-a‘zolari qancha toparmon-tutarman bo‘lmasin, uyda tartib-intizom, tejamkorlik bo‘lmasa, bu uyda baraka bo‘lmaydi.

Oybekning “Qutlug‘ qon” romanida shunday epizod bor: Yo‘lchi otasi o‘lgach, bir parcha yerlarini sotib, otasining ma‘rakalarini o‘tkazadi va onasining maslahati bilan pul topish uchun tog‘asi - Toshkentning mashhur boyi Mirzakarimboynikiga keladi. Boy Yo‘lchidan yerini so‘raganda, u yerni sotishganini aytadi.

Boy boshini chayqab: “Attang, jiyan, er kishi yer sotmaydi, yer sotgan er bo‘lmaydi. Dunyoda pul topish qiyin. Undan ham qiyini - pulni o‘z o‘rnida sarflash” - deydi.

Demak, xulosa o‘rinda shuni aytish joizki, mehnat qilgan bilan ma‘lum maqsad va reja, o‘quv bo‘lmasa, foydasi yo‘q. Shuning uchun xalqimiz ana shu borada ham, ya‘ni ish jarayonini to‘g‘ri tashkil etish va mehnat qurollariga munosabat yo‘sinida ham maqtansa arzigulik an‘analarga ega.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Mirziyoev Sh.M. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”. T.: «O‘zbekiston» - 2017. 29-b.
2. Gapparov B.N. va boshqalar. “Xalq pedagogikasi”, “Tafakkur” nashriyoti, Toshkent. 2009 yil. 209-211 b.